

**TDSHU huzuridagi Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish
ilmiy-tahlil markazi direktori PhD Mamadjonov Adhamjon Baxtiyorjon
o'g'lining 2025-2026-o'quv yilidagi faoliyatiga doir
HISOBOTI**

I. Ilmiy loyihalarni amalga oshirishga doir ishlar

1. Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazida 2026-2028-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim tashabbus — "O'zbekiston-Yaponiya" xalqaro qo'shma ilmiy loyihalar tanloviga loyiha topshirilgan.

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga jami **1** ta ilmiy amaliy va fundamental **loyihalar** topshirildi:

1. "C5+Japan" muloqoti doirasida Afg'oniston tinchligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy hamkorlik platformasini ishlab chiqish (*innovatsion*)

Ushbu loyihalardan *"C5+Japan" muloqoti doirasida Afg'oniston tinchligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy hamkorlik platformasini ishlab chiqish* nomli ilmiy loyiha hozirgi kunda ilmiy ekspertiza jarayonida turibdi.

II. Ilmiy konferensiyalarni tashkil etishga doir ishlar;

Markaz 2025-2026-o'quv yili davomida turli xalqaro va respublika **konferensiyalarni** tegishli oliy maktablar va kafedralar bilan hamkorlikda tashkil qilish jarayonlarida ishtirok etdi:

1. 2025-yil 10-oktyabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda *"O'zbekiston-Ozarbayjon adabiy aloqalar va hamkorlik istiqbollari"* mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya qatnashildi. <https://tsuos.uz/tdshuda-ozbekiston-ozarbayjon-adabiy-alokalar-va-hamkorlik-istiqbollari-mavzusida-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-otkazildi/>



2. 2025-yil 20 – noyabr kuni TDSHUDa «***O'zbekiston–Ozarbayjon yoshlar konferensiyasi***» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirok etildi. Mazkur anjuman Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamkorligida tashkil etildi.

<https://tsuos.uz/tdshuda-ozbekiston-ozarbayjon-yoshlar-konferensiyasi-boli>



3. 2025-yil 26-noyabr kuni Koreya Respublikasi Elchixonasi va Markaziy Osiyo xalqaro instituti tomonidan tashkil etilgan ***“Koreya – Markaziy Osiyo hamkorligini mustahkamlash: kelajak uchun umumiy tasavvur”*** mavzusidagi Toshkent shahri “AZIMUT Grand” mehmonxonasida tashkil etilgan ekspertlar forumida ishtirok etildi. <https://tsuos.uz/tdshu-vakillari-koreya-markaziy-osiyo-hamkorligi-boyicha-ekspertlar-forumida-ishtirok-etdi/>



4. 2025-yil 29-noyabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ***“Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati”*** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya doirasida "Munozara" intellektual o'yini tashkil etilib, unda yosh tahlilchilar o'z fikrlariga asoslangan holda, ilmiy-tahliliy yondashuv va debat madaniyatini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldi. <https://tsuos.uz/tdshuda-globallashuv-sharoitida-yoshlar-manaviyati-mavzusida-ilmiy-amaliy-konferensiya-bolib-otdi/>



5. 2025-yil 11-dekabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar institutida ***“Fentech innovatsiyalarining zamonaviy taraqqiyotdagi o‘rni”*** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiya doirasida Konferensiya davomida fentech texnologiyalarining global rivojlanishdagi o‘rni, raqamli iqtisodiyotning yangi tendensiyalari hamda innovatsion yechimlarning amaliy qo‘llanishiga bag‘ishlangan mazmunli ma‘ruzalar tinglandi. <https://tsuos.uz/tdshuda-fentech-innovatsiyalarining-zamonaviy-taraqqiyotdagi-orni-mavzusida-ilmiy-amaliy-konferensiyasi-bolib-otdi/>



6. 2026-yil 7-fevral kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining O‘zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi hamda Barqaror rivojlanish markazi bilan hamkorlikda ***“Markaziy va Janubiy Osiyo: tarixiy aloqalar, zamonaviy hamkorlik va taraqqiyot istiqbollari”*** mavzusida davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbir Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, bugungi hamkorlik aloqalari hamda kelajakdagi taraqqiyot istiqbollarini muhokama qilishga bag‘ishlandi. <https://tsuos.uz/markaziy-va-janubiy-osiyo-tarixiy-alloqalar-zamonaviy-hamkorlik-va-taraqqiyot-istiqbollari-mavzusida-davra-suhbati-bolib-otdi/>



7. 2026-yil 14-mart kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o'tkazilgan ***“Transformatsiya davrida global muammolar yechimi: yaponshunoslikning nazariy va amaliy masalalari”*** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Mazkur konferensiya yaponshunoslik sohasidagi dolzarb ilmiy masalalarni muhokama qilish, xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish hamda ilmiy tajriba almashish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qildi. <https://tsuos.uz/yaponshunoslik-masalalariga-bagishlangan-xalqaro-konferensiya/>



8. 2026-yil 25-aprel kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Sharqshunos tahlilchilar” intellektual klubi hamda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi hamkorligida ***“Siyosiy tahlilchi kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari”*** mavzusida Sharqshunos tahlilchilarning I Respublika forumi bo'lib o'tdi. Mazkur forum siyosiy tahlil yo'nalishida kadrlar tayyorlashning bugungi holati, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlarni muhokama qilishga bag'ishlandi. Tadbirda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi Xayrulla Sattorov, Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti Bosh ilmiy xodimi Bekzod Ochilov, shuningdek, yetakchi mutaxassislar, siyosatshunoslar, professor-o'qituvchilar hamda talabalar faol ishtirok etdi. Forumda ilgari surilgan nazariy

takliflar va ekspert xulosalaridan tahliliy axborot byulleteni nashr etildi.

<https://tsuos.uz/tdshuda-sharqshunos-tahlilchilar-i-respublika-forumi/>



9. 2026-yil 14-may kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Iqtisodiyot va menejment kafedrasida huzuridagi Barqaror iqtisodiy rivojlanish ilmiy markazi tomonidan ***“Barqaror iqtisodiy rivojlanish sari”*** mavzusida xalqaro talaba konferensiyasi o‘tkazildi. Ushbu konferensiyada, yoshlar va yosh tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy va amaliy muhokamalar, zamonaviy muhitda barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ilg‘or fikr va tajribalar bilan fikr almashildi. Konferensiya, xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanish siyosati, inson kapitali, ijtimoiy barqarorlik, ekologiya va yashil texnologiyalar, shuningdek, xalqaro turizm va hududiy rivojlanish kabi muhim istiqbolli yo‘nalishlarni qamrab oldi. <https://tsuos.uz/tdshuda-barqaror-iqtisodiy-rivojlanish-sari-xalqaro-talaba-konferensiyasi-otkazildi/>



10. 2026-yil 16-may kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ***“Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo: barqarorlik va taraqqiyot istiqbollari”*** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Mazkur anjuman Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish, mintaqaviy xavfsizlik, geosiyosiy jarayonlar va xalqaro hamkorlik istiqbollari muhokama qilishga bag‘ishlandi. Konferensiya materiallari to‘plam sifatida

nashr etildi va nufuzli xalqaro bazalarda indekslandi. Konferensiyada 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlar ekspertlari ishtirok etdilar. Konferensiyada ilgari surilgan nazariy takliflar va ekspert xulosalaridan tahliliy xborot byulleteni nashr etildi. <https://tsuos.uz/tdshuda-zamonaviy-xalqaro-munosabatlarda-markaziy-osiyo-barqarorlik-va-taraqqiyot-istiqbollari-mavzusidagi-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-bolib-otdi/>



III. Ilmiy nashrlarga doir ishlar;

Markazda 2025-2026-o'quv yili davomida 2 ta xalqaro konferensiya, 3 ta respublika doirasidagi konferensiya va 1 ta forum to'plami hamda 3 ta monografiya nashr qilindi. Shuningdek, 10 tomlik monografiyalar to'plami nashr etishga tavsiya etilgan.

Konferensiya materiallari:

1. ***“Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo: barqarorlik va taraqqiyot istiqbollari”***. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi miqiyosidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari to'plami. (Toshkent, 2026-yil 16-may). TDSHU, 2026. – 566 b.

2. ***“Siyosiy tahlilchi kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari”*** mavzusida Sharqshunos tahlilchilarning I Respublika forumi materiallari to'plami (2026-yil 25 aprel)– T., 2026.


3. ***“Fentech innovatsiyalarining zamonaviy taraqqiyotdagi o'rni”*** mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi miqiyosidagi respublika ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari to'plami. (Toshkent, 2025-yil 11-dekabr). TDSHU, 2025. – 116 b.

4. ***“Barqaror iqtisodiy rivojlanish sari”*** mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi miqiyosidagi respublika ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari to'plami. (Toshkent, 2026-yil 15-may). TDSHU, 2026. – 341 b.

5. ***Siyosiy tahlilchi kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari***. Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazining Axborot-tahliliy byulleteni. T.: TDSHU, 2026. – 86 b.

6. **Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyoning o'рни va istiqbollari.** Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazining Axborot-tahliliy byulleteni. T.: TDSHU, 2026. – 125 b.

7. O'zbekiston Respublikasining yetakchi tahlil markazlari va davlat tashkilotlariga 20 dan ortiq ekspert xulosalari taqdim etildi.



Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo: barqarorlik va taraqqiyot istiqbollari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi maqiyosidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari to'plami. (Toshkent, 2025-yil 17-may). TDSHU, 2025. – 566 b.

Mas'ul muharrir:

S.Bo'ronov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay'ati

Sh.Yovqochev – siyosiy fanlar doktori, professor

S.Jo'rayev – siyosiy fanlar doktori, professor

N.Qosimova – siyosiy fanlar doktori, professor

Z.Zaripova – siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

K.Nikolayeva siyosiy – fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)


A.Mamadjonov – Xalqaro munosabatlar kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

F.Karimov – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani, siyosiy fanlar doktori, professor

E.S.Sultonova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, siyosiy fanlar doktori

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 3-maydagi 9-sonli qaror).



Mas'ul muharrir:

Adhamjon Mamadjonov

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)


Taqrizchilar:

S.A.Jo'rayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
siyosiy fanlar doktori.

A.Yoldoshev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Davlat siyosati va boshqaruvi tadqiq etish ilmiy-amaliy markazi direktori,
tarix fanlari doktori, professor.



Siyosiy tahlilchi kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari. Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazining Axborot-tahliliy byulleteni. T.: TDSHU, 2026. – 86 b.


Mas'ul muharrir:
Adhamjon Mamadjonov
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:
S.A.Jo'rayev
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
siyosiy fanlar doktori.

A.Yo'ldoshev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi. Davlat siyosati va boshqaruvi tadqiq etish ilmiy-amaliy markazi direktori,
tarix fanlari doktori, professor.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 1-iyun, 10-sonli bayonnoma)

/



Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyoning o'rnini va istiqbollari. Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazining Axborot-tahliliy byulleteni. T.: TDSHU, 2026. – 125 b.

Mas'ul muharrir:
Adhamjon Mamadjonov
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:
S.Bo'ronov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar doktori.
E.Sultonova
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, siyosiy fanlar doktori.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 1-iyun, 10-sonli bayonnoma)

Monografiyalar:

1. Азизов И.Р. Парламентская дипломатия. Вопросы теории и практики. Монография. – Ташкент. 2025. – 192 с.
2. Alimov O. "Sharqiy Osiyodagi geoiqtisodiy transformatsiyalar sharoitida Yaponiyaning energetika diplomatiyasi". Monografiya. – Toshkent: TDSHU, 2026. – 236 b.

IV. Markaz tadqiqot yo'nalishlariga doir tadbirlarda ishtirok etish;

O'quv yili davomida Markazning tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda bir qator tadbirlarda ishtirok etildi.

- Xalqaro va respublika doirasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, forumlar, tahliliy hujjatlar tayyorlashda muntazam ishtirok etildi.

- Respublika tahlil markazlari hamda siyosiy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan yirik uchrashuvlar, anjumanlar va davra suhbatlarida ishtirok etildi

V. Markaz faoliyati va yurtimizdagi ilm-fan sohasidagi ishlar yuzasida OAV tahliliy materiallar chop qilish;

O'quv yili davomida Markaz tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy islohotlar, davlat tashqi siyosati, o'zaro munosabatlar hamda sharq mamlakatlarida yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy voqeliklarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalarida 93 ta OAV da chishlar, shundan, UzA matbuotida 64 ta, televediniya ko'rsatuvlarida 23 ta, radioeshittirishda 2 ta, gazetada 4 ta ilmiy-tahliliy maqolalar e'lon qilindi hamda intervyular berib borildi.

Xususan, TDSHU katta o'qituvchisi Alina Salixovaning **"Особенности экономики Катара и опыт для Узбекистана: стратегическое партнерство в действии"** nomli maqolasi UzA sahifasida yoritildi.

Batafsil. <https://uza.uz/posts/883058>

TDSHU huzuridagi Sharq mamlakatlari rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazi direktori Adhamjon Mamajonov **O'zbekiston-Qatar munosabatlari haqida** UzAda fikr bildirdi.

Batafsil. <https://uza.uz/posts/883537>

TDSHU "Xalqaro munosabatlar" kafedrası tayanch doktoranti Madinabonu Mamajonova **O'zbekiston-Qatar munosabatlari haqida** UzAda fikr bildirdi.

Batafsil. <https://uza.uz/posts/883924>

TDSHU "Xalqaro munosabatlar" kafedrası tayanch doktoranti Fotima Nazarova **"Kelajak o'yinlari" - raqamli diplomatiyaning yangi bosqichi** mavzusida UzAda fikr bildirdi.

Batafsil. <https://uza.uz/uz/posts/kelazhak-oyinlari-raqamli-diplomatiyaning-yangi-bosqichi> 888950

TDSHU "Xalqaro munosabatlar" kafedrası professori Sayfiddin Jo'rayev **"Toshkent va Ostona: O'zaro ishonch mustahkamlanmoqda"** mavzusida mamlakatlar munosabatlarining yangi bosqichi haqida UzAda fikr bildirdi.

Batafsil. <http://uza.uz/posts/889588>

TDSHU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, professor Durbek Sayfullayev hamda Xalqaro munosabatlar kafedrası professori Sayfiddin Jo'rayevning **"ShHT 25 yoshda: tashkilot yangi bosqichga tayyormi?"** mavzusida UzAda fikr bildirdi.

VI. 2025-2026-o'quv yilida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar

Innovatsion rivojlanish agentligi hamda boshqa grant dasturlari doirasida Sharq tarixi, siyosati, iqtisodiyoti va raqamli gumanitar fanlar yo'nalishlarida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy loyihalarni ishlab chiqish hamda moliyalashtirish tanlovlariga taqdim etish.

Markaz huzurida tarix, siyosatshunoslik, iqtisod, turizm yo'nalishlari bo'yicha jamoaviy monografiyalar, ilmiy to'plamlar hamda o'quv adabiyotlarini nashr etish ishlarini davom ettirish.

Xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy loyihalar, konferensiyalar, seminarlar tashkil etish va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish.

"Sharqshunos tahlilchilar" va "Sharqshunos diplomatlar" itelektual klublarning faoliyatini jalb etish, sharq mamlakatlarida yuz berayotgan siyosiy jarayonlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga jalb etish.

Markaz tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlar hamda mahorat darslarini tashkil etish va ularda faol ishtirok etish.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA), respublika ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy-ommabop nashrlarda oliy ta'lim, fan, innovatsiyalar, tarixiy-madaniy meros va raqamlashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-tahliliy maqolalar, ekspert xulosalari va sharhlarni muntazam e'lon qilib borish.

Markaz ilmiy faoliyati natijalarini xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi jurnallarda e'lon qilish, ilmiy mahsulotlarni tijoratlashtirish hamda ularni ta'lim va madaniyat muassasalari faoliyatiga joriy etish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

**TDSHU huzuridagi Sharq mamlakatlarining
rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot
markazi direktori**

PhD A.Mamadjonov